

OILA TARBIYASI VA UNING JAMIYAT OLDDIDAGI MAS'ULIYATI HAQIDA SHARQ ALLOMALARINING QARASHLARI

Namangan davlat pedagogika instituti

Zaynobidinova Naima Inomidinovna,

“Falsafiy va tarixiy fanlar” kafedrasi katta o'qituvchisi, f.f.n.

E-mail: nzaynobidinova2406@gmail.com

Qo'ldashev Jamshidbek Davlatali o'g'li

Namangan davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

E-mail: khuldashevjamshid2000@gmail.com

+99893-914-14-74

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sharq allomalari merosida oila tarbiyasi va shaxsning jamiyat oldidagi mas'uliyati masalalari tarixiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil etiladi. Tadqiqotda hadis ilmi namoyandalari, sharqiy falsafa, tasavvuf va adabiyot vakillari asarlarida oilaviy munosabatlarning ma'naviy-axloqiy asoslari, ota-ona va farzand burchlari hamda shaxsiy mas'uliyatning ijtimoiy ko'lamda kengayib borishi yoritiladi. Maqolada sifat jihatidan tahliliy yondashuv, matnshunoslik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Natijalar Sharq mutafakkirlari qarashlarida oila jamiyat barqarorligi va ma'naviy yangilanishining bosh bo'g'ini sifatida talqin qilinishini, shuningdek, mas'uliyat konsepsiyasining oila, mahalla va jamiyat tizimi orqali bosqichma-bosqich shakllanib borishini ko'rsatadi. Xulosa qismida ushbu g'oyalarning zamonaviy oila siyosati, tarbiya tizimi va ma'naviy-ma'rifiy dasturlarni takomillashtirishdagi nazariy ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Sharq allomalari, oila tarbiyasi, jamiyat, mas'uliyat, ma'naviyat, axloq, tarbiya.

The Views of Eastern Scholars on Family Education and Its Responsibility to Society

Abstract. This article provides a historical and philosophical analysis of family upbringing and individual responsibility to society in the intellectual heritage of classical Eastern scholars. The study examines ethical, legal and spiritual approaches to the family as a key social institution and explores how parental duties, child education and communal solidarity are conceptualized as foundations for social order. Methodologically, the paper relies on qualitative textual analysis and comparative interpretation of classical sources and recent socio-philosophical studies on the family–society relationship. The findings show that Eastern thinkers consistently regard the family as a primary space for cultivating moral and spiritual values, and view personal responsibility as gradually expanding from the family to the wider community and the state. The conclusions highlight the relevance of these ideas for contemporary family policy, value-oriented education and the prevention of moral crises in a globalized world.

Keywords: Eastern scholars, family upbringing, social responsibility, morality, spirituality, education.

Мнения восточных учёных о семейном воспитании и его социальной
ответственности

Аннотация. В статье проводится историко-философский анализ семейного воспитания и ответственности личности перед обществом в наследии восточных мыслителей. Рассматривается, как в этических, правовых и духовных источниках семья осмысливается как ключевой социальный институт, где формируются нравственные ценности, ответственность родителей и детей, а также чувство солидарности с общиной. Методологической основой исследования выступают качественный текстологический и сравнительно-аналитический подходы к классическим источникам и современным социально-философским работам о соотношении семьи и общества. Результаты показывают, что восточная мысль трактует семью как ядро общественной стабильности и духовного обновления, а личную ответственность — как

поэтапно расширяющееся отношение от семьи к махалле, обществу и государству. В заключении обосновывается актуальность этих идей для современной семейной политики, системы воспитания и профилактики ценностных кризисов в условиях глобализации.

Ключевые слова: восточные мыслители, семейное воспитание, общество, ответственность, духовность, нравственность.

Kirish

Oila insoniyat taraqqiyoti davomida barcha davr va tuzumlarga xos bo'lgan eng qadimiy va barqaror ijtimoiy institutlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy tadqiqotlarda oilaning inson baxt-saodatini ta'minlovchi "qo'rg'on" sifatida talqin qilinishi bejiz emas; chunki uning tarkibida ma'naviy, axloqiy, ruhiy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar murakkab tizim holida mujassamdir.[1] Shaxsning halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharm-u hayo, mehr-oqibat, mehnatsevarlik kabi fazilatlari ham, tadqiqotlar ko'rsatishicha, avvalo oilada shakllanadi, so'ngra jamiyat miqyosida namoyon bo'ladi.[2] Bugungi globallashuv, axborot oqimi va ommaviy madaniyatning bosimi fonida oilaviy tarbiya tizimining izdan chiqishi, ota-onaning tarbiyaviy mas'uliyatini zaiflashuvi, bolalar ongiga turli mafkuraviy xurujlarning kuchayishi kabi muammolar ko'plab mamlakatlarda dolzarb bo'lib bormoqda.[3] Shu jarayonda Sharq allomalari merosiga qaytish, ularning oila va jamiyat munosabatlariga oid qarashlarini qayta o'rganish nafaqat tarixiy, balki nazariy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.[4]

O'zbekistonda so'nggi yillarda oila va jamiyat munosabatlarining normativ-huquqiy hamda ijtimoiy-falsafiy jihatlarini yoritishga alohida e'tibor qaratilmoqda.[5] Oila konstruktiv ijtimoiy institut sifatida individ va jamiyat o'rtasidagi asosiy bo'g'in, huquqiy normalar bilan ma'naviy qadriyatlar uyg'unlashuvining real maydoni ekanligi ta'kidlanadi.[6] Shu bilan birga, xotin-qizlarning oiladagi va jamiyatdagi o'rni, ularning huquqlarini himoya qilish, zo'ravonlik va kamsitish holatlarining oldini olish ham ijtimoiy-siyosiy kun tartibidagi asosiy mavzulardan biridir.[7]

Sharq mutafakkirlari – hadis ilmi allomalari, falsafa va tasavvuf namoyandalari, adabiyot va siyosat arboblari – oila va jamiyat masalasini o'z davrlarida chuqur mafkuraviy darajada ishlab chiqqanlar. Zamonaviy ishlarda ham Sharq allomalari qarashlaridan yoshlarning qadriyatlarga munosabati, ma'rifatli avlodni tarbiyalash, jamiyatdagi demokratik islohotlarga aksiologik yondashuvni rivojlantirishda foydalanish dolzarbligi ta'kidlanadi.[8]

Mazkur maqolaning maqsadi – Sharq allomalari qarashlarida oila tarbiyasi va shaxsning jamiyat oldidagi mas'uliyati masalasini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil etish, bu qarashlarni zamonaviy oilaviy siyosat va tarbiya konsepsiyalari bilan bog'liq holda konseptual umumlashtirishdir.

Tadqiqotning ob'ekti – oila va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy-falsafiy munosabatlar tizimi, predmeti esa – Sharq allomalari merosida oilaviy tarbiya va ijtimoiy mas'uliyat haqidagi g'oyalarning mazmuni va ularning bugungi kun bilan uzviy bog'liqligidir.

Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, unda Sharq allomalari merosidan tashqari, oila va jamiyat munosabatlarining zamonaviy normativ-huquqiy, sotsiologik va aksiologik tahlillari bilan qiyosiy aloqadorlikda oila tarbiyasining ma'naviy-me'yoriy asoslari, ota-ona va farzand mas'uliyatining ijtimoiy funksiyalari kengaytirilgan tarzda yoritiladi.[9]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo'lib, unda bir nechta metodologik yondashuvlar uyg'un qo'llanildi. Avvalo, tarixiy-falsafiy yondashuv Sharq allomalari ijodini ularning yashagan davri, ijtimoiy-siyosiy vaziyat, diniy va ma'naviy an'analar kontekstida ko'rib chiqish imkonini berdi.[10] Matnshunoslik va konseptual tahlil usullari yordamida hadis to'plamlari, axloqiy-risolaviy asarlar, tasavvufiy manbalar va badiiy-didaktik matnlardagi oilaga, ota-ona va farzand burchiga, jamiyat oldidagi mas'uliyatga oid bo'lim va iqtiboslar saralanib, ularning semantik qatlamlari tahlil qilindi.[11]

Qiyosiy tahlil metodi Sharq allomalari qarashlarini zamonaviy ijtimoiy-falsafiy, pedagogik va huquqiy tadqiqotlar natijalari bilan solishtirish, o'xshashlik va farqlarni

aniqlashga xizmat qildi.[12] Jumladan, oilaviy tarbiyaning qiyinlashuvi, globallashuv sharoitida farzandlarni mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, ijtimoiy adolat va tenglik kabi masalalar bo'yicha zamonaviy ishlardagi yondashuvlar bilan Sharq merosi o'rtasidagi uzviyliklar ko'rsatildi.[13]

Ayrim zamonaviy tadqiqotlarda oiladagi ijtimoiy-ma'naviy muhitning farzand tarbiyasiga ta'siri sotsiologik so'rovlar, anketa va kuzatishlar orqali o'rganilgan bo'lsa-da, mazkur maqola ko'proq g'oyaviy-nazariy tahlilga yo'naltirilgan. Shuning uchun tanlangan metodlar oila tarbiyasi va ijtimoiy mas'uliyat tushunchalarining falsafiy chuqurligini ochib berishga qaratildi.[14]

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Tahlil Sharq allomalari merosida oila va mas'uliyatga doir bir nechta asosiy yo'nalishlarni ko'rsatdi.

Birinchidan, oilaning ijtimoiy-falsafiy maqomi haqida. Zamonaviy tadqiqotlarda oila insonning baxt-saodatini ta'minlovchi qo'rg'on sifatida tavsiflanadi, unda nafaqat shaxsiy his-tuyg'ular, balki millat va davlat tarixini ifoda etuvchi ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy munosabatlar mujassam ekani ta'kidlanadi.[15] Oilaning farovonligi milliy farovonlikning poydevori sifatida talqin qilinishi Sharq mutafakkirlarining "oila – kichik jamiyat, jamiyat – kengaytirilgan oila" haqidagi qarashlari bilan uyg'un ekani ko'rinadi.[16]

Ikkinchidan, ota-onaning tarbiyadagi o'rni va mas'uliyati. Zamonaviy tadqiqotlar shaxs kamolotining dastlabki bosqichlarini aynan oiladagi tarbiya belgilab berishini ta'kidlaydi; bola besh yoshgacha olgan tarbiya uning shaxsiyati shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Sharq merosida ham bola tarbiyasini ona qornidan boshlash g'oyasi ilgari suriladi, bu jarayonda, xususan, onaning axloqiy va ruhiy holati, oiladagi ma'naviy muhit hal qiluvchi omil sifatida ko'riladi. Hadis va axloqiy risolalarda ota "eng yaxshi meros" sifatida farzandga chiroyli odobni qoldirishi zarurligi ta'kidlanadi, bu esa tarbiyaning moddiy ta'minotdan ustun qo'yilganini anglatadi.[17]

Uchinchidan, farzand tarbiyasida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning ustuvorligi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, oila farzandni shirinso'z, muloyim, kamtar, boshqalar bilan

muomala qilishda halol va vafodor bo'lishga, odamlarning quvonch va tashvishlarini baham ko'rishga o'rgatishi lozim. Oila muhitida shakllangan bu fazilatlar keyinchalik ijtimoiy adolat, fuqarolik mas'uliyati, boshqalarning huquqlarini hurmat qilish kabi kengroq ijtimoiy qadriyatlarning poydevoriga aylanadi.[18]

To'rtinchidan, oila va jamiyat o'rtasidagi normativ-huquqiy bog'liqlik. Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda oila institutining normativ-huquqiy asoslari, huquqiy me'yorlar va ma'naviy qadriyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir tahlil qilinadi. Oila individ va jamiyat o'rtasida konstruktiv ko'priki bo'lib, unda axloqiy fazilatlar huquqiy ong bilan uyg'unlashadi. Shu bilan birga, xotin-qizlarning oiladagi va jamiyatdagi maqomini belgilovchi milliy qadriyatlar va demokratik tamoyillar muvozanatda ko'rilmogda, zo'ravonlik va kamsitishning huquqiy oldini olish masalalari alohida yoritilmogda.[19]

Beshinchidan, ma'rifatli avlod va ma'naviy tarbiya konsepsiyasi. "Ma'rifatli avlod" tushunchasi atrofida olib borilgan ijtimoiy-falsafiy tahlillar oila va kengroq ijtimoiy muhitning komil insonni voyaga yetkazishdagi rolini yoritadi. Ota-onalar, ta'lim muassasalari va mahalla institutining hamkorligi orqali yoshlarning ma'naviy-axloqiy va aksiologik qadriyatlarini shakllantirish zarurligi urg'ulanadi. Sharq tasavvufida komil insonni tarbiyalash, ruhiy va ma'naviy poklanish maqsadi aynan oilaviy-ijtimoiy mas'uliyat bilan chambarchas bog'liq tarzda talqin qilinadi.[20]

Natijalar, shuningdek, oilaviy tarbiyaning qiyinlashuvi jamiyat taraqqiotti bilan bog'liq bo'lib, talablar oshgan sari estetik, jinsiy, axloqiy tarbiya sifatini yuksaltirish zarurati kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Oilada shakllangan beparvolik, otaning farzandga loqaydligi esa salbiy oqibatlarga – xudbinlik, befarqlik, zo'ravonlik va ijtimoiy mas'uliyatsizlik kabi illatlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.[21]

Natijalar Sharq allomalari merosi bilan zamonaviy ilmiy yondashuvlar o'rtasida kuchli ichki bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Oila ijtimoiy adolat, tenglik, ma'naviyat va huquqiy madaniyatni shakllantiruvchi bosh maydon sifatida tasvirlanar ekan, bu jarayonning muvaffaqiyati shaxsiy mas'uliyat hissining qanday tarbiyalanishi bilan bevosita bog'liqdir. Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy adabiyotda ijtimoiy adolat va

tenglik masalalari ko'p qirrali, ziddiyatli kategoriya sifatida talqin qilinadi. Adolatning faqat iqtisodiy yoki siyosiy taqsimot bilan cheklanmasdan, ma'naviy va axloqiy mezonlar bilan uyg'unlashishi zarurligi qayd etiladi.[22] Bu yondashuv Sharq allomalari qarashlarida ham mavjud bo'lib, ularning nazarida oila – axloq, mehnat, odob, hurmat va hamjihatlik kabi fazilatlar jamiyat miqyosidagi adolat va tenglikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Yoshlarda demokratik islohotlarga, ijtimoiy o'zgarishlarga nisbatan aksiologik munosabatni shakllantirish zarurati to'g'risidagi tadqiqotlar ham oila va ma'naviy tarbiyaning ustuvorligiga tayanadi. Qadriyatlarni bilish, ularni baholash va ularga muvofiq harakat qilish ko'nikmalari avvalo oilada shakllanadi; keyinchalik esa maktab, oliy ta'lim va ijtimoiy institutlar tomonidan takomillashtiriladi.[23]

“Kadrlar tayyorlash” va “ma'rifatli avlod” konsepsiyalarini tahlil qiluvchi tadqiqotlarda jamiyat taraqqiyoti ma'naviy barkamol, ezgu g'oyalarga sodiq fuqarolarsiz tasavvur etib bo'lmazligi ta'kidlanadi. Bunday avlodni tarbiyalashda Sharq tasavvufi, xususan, naqshbandiya ta'limotidagi “xalq ichra, xalq bilan” tamoyili alohida ahamiyat kasb etadi; u oilaviy burch va jamiyat oldidagi mas'uliyatni bir-biridan ajralmas holda anglashni nazarda tutadi.[24]

Oilaviy tarbiya borasida zamonaviy tadqiqotlarda qayd etilgan muammolar – axborot inqilobi, texnologik taraqqiyot, axloqiy mezonlarning zaiflashuvi, ma'naviy bo'shliq kabi omillar Sharq merosidan olingan g'oyalarni amaliy jihatdan qayta talqin qilishni talab etadi. Masalan, ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas'uliyatini kuchaytirish bo'yicha ma'naviy-ma'rifiy dasturlar, oilada sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirishga qaratilgan trening va loyihalar aynan Sharq allomalari qarashlari asosida boyitilishi mumkin.

Ayollar va xotin-qizlarning oilaviy va ijtimoiy hayotdagi o'rniga bag'ishlangan tadqiqotlar ham Sharq merosini qayta o'qish zaruratini ko'rsatadi. Zo'ravonlik, kamsitish, jinsiy tengsizlik holatlarini bartaraf etish uchun qonuniy mexanizmlar bilan bir qatorda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish lozimligi ta'kidlanadi.[25] Bu esa

oila ichida hurmat, adolat, hamkorlik va o'zaro mas'uliyat tamoyillarini tiklash orqali amalga oshirilishi mumkin.

Shunday qilib, Sharq allomalari qarashlari va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar o'rtasidagi qiyosiy tahlil oilaning jamiyatdagi o'rni, oila tarbiyasi va ijtimoiy mas'uliyat masalalarining uzviy bog'liqligini, ularni integratsiyalashgan holda o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa

Yig'ilgan dalillar asosida quyidagi umumlashtirilgan natijalarga kelish mumkin. Birinchidan, Sharq allomalari merosida oila shaxs kamoloti, ma'naviy yangilanish va jamiyat barqarorligining bosh bo'g'ini sifatida talqin qilinadi. Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy va pedagogik tadqiqotlar ham oilani axloqiy qadriyatlar, ma'naviy ong va ijtimoiy mas'uliyat shakllanadigan markaziy institut sifatida ko'rsatadi.

Ikkinchidan, ota-onaning farzand tarbiyasidagi mas'uliyati ham Sharq merosida, ham hozirgi ilmiy adabiyotlarda shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatning boshlang'ich nuqtasi sifatida baholanadi. Bola dastlabki yillarda oilada olgan tarbiya uning keyingi butun hayotidagi axloqiy pozitsiyasi, jamiyatga munosabati va ijtimoiy faolligini belgilab beradi.

Uchinchidan, ijtimoiy adolat, tenglik, ma'rifatli avlod va demokratik islohotlarga ijobiy munosabat kabi tushunchalar oiladagi ma'naviy-axloqiy tarbiya bilan uzviy bog'langan bo'lib, bu jarayonda Sharq allomalari qarashlari kuchli nazariy asos vazifasini bajarishi mumkin.

To'rtinchidan, zamonaviy globallashuv, axborot inqilobi va texnik taraqqiyot sharoitida yuzaga kelayotgan ma'naviy inqirozlar, zo'ravonlik va befarqlik holatlarining oldini olish uchun oilaviy tarbiyani kuchaytirish, ota-onalar mas'uliyatini oshirish, xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash va ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarini tizimli yo'lga qo'yish zarur.

Ushbu maqolam xulosalari oila siyosatini ishlab chiqishda, ta'lim va tarbiya dasturlarini yangilashda, shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy loyihalarni rejalashtirishda Sharq allomalari merosini chuqurroq va tizimli qo'llashga turtki berishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Azimov, U.A. "Analysis of theoretical and methodological basis of development of axiological attitude of youth to democratic reforms." Scientific journal of the Fergana State University, 2023.
2. Abdunasirova, X.E. "Xotin-qizlarning oila va jamiyat hayotidagi o'rni va ularning huquqlarini himoya qilish muammolari." Goals of Sustainable Development in the Integration of Science and Education, 2023.
3. Aliyev, N. "Jamiyat va texnik taraqqiyot muvozanatining falsafiy tahlili." Tamaddun Nuri Jurnali, 2025.
4. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub, Xamsa va boshqa didaktik asarlar.
5. Karimova, G.A. "Influence of the socio-spiritual environment in the family on education of children." Scientific journal of the Fergana State University, 2023.
6. Iqboljon, Q. "Gnesiological analysis of the system of ethical and aesthetic values of future music teachers in the musical heritage of Eastern scientists." Scientific journal of the Fergana State University, 2023.
7. Mardonov, R. "Intercultural dialogue based on the mutual influence of Eastern and Western philosophies of education." Scientific journal of the Fergana State University, 2023.
8. Muxammadiyeva, O. "Oila va jamiyat munosabatlarining normativ-huquqiy hamda ijtimoiy-falsafiy jihatlari." Tamaddun Nuri Jurnali, 2025.
9. Qambarov, A. "Socio-philosophical analysis of education of the educated generation." Scientific journal of the Fergana State University, 2023.
10. Teshaboyev, M.M. "Social justice and social equality in society." Scientific journal of the Fergana State University, 2023.
11. Qur'oni Karim. Rum surasi, 21-oyat.
12. Yuldashev, F.A. va boshq. "Jamiyatda ehtiyoj va manfaatlarni tadqiq etishning muhim jihatlari." Scientific journal of the Fergana State University, 2023.
13. Zoyirov, E. "Socio-political views of Yakubi Charkhi." Scientific journal of the Fergana State University, 2023.

- 14.O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi va oila institutiga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlar.
- 15.Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. (turli nashrlar, o‘zbek/lotin grafikasidagi tarjimalar).